

# 2023-YIL BITIRUV DIPLOMLARINI TANTANALI TAQDIM ETISH MAROSIMI

2023-yil 24-may kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida bitiruvchilarga tantanali diplom topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimda «Mashinasozlik texnologiyasi», «Axborot texnologiyalari», «Sanoatda xo'jalik qurilishi va arxitektura», «Avtomobil muhandisligi» yo'nalishlarini tamomlagan 200 dan ortiq bitiruvchilar taqdirlandi.

Diplomlarni Italiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi – Agostino Pinna, Turin politexnika universiteti rektori (Italiya) – Guido Sarakko va Toshkentdagi Turin politexnika universiteti rektori – Jamshid Inoyatxodjayevlar topshirdi.

Bitiruvchilarimizni chin yurakdan tabriklaymiz va o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lida muvaffaqiyatlar tilaymiz.















